

S.Djurayev, D.Valiyev, O.Xakimov, J.Zokirov

YONG'INNI O'CHIRISHNING BIRLAMCHI VOSITALARI

Toshkent – 2023

O'zbekiston Respublikasi FVV Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy – tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan.

Mualliflar: S.Djurayev, D.Valiyev, O.Xakimov, J.Zokirov

O'zbekiston Respublikasi FVV YoXvaFV ITI Ilmiy-texnik Kengashining qaroriga asosan chop etilishiga tavsiya etilgan.

Ushbu qo'llanma yong'in xavfsizligi sohasida amaldagi me'yoriy-xuquqiy, me'yoriy va me'yoriy-texnik xujjatlar talablari asosida ishlab chiqilgan.

Qo'llanmada yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari turlari, ularni qo'llash tartibi, ishchi holatini davriy tekshirish, korxona va tashkilotlar binolarida yong'in xavfsizligini ishonchli ta'minlash maqsadida jihozlash me'yorlari va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ma'lumotlar aks ettirilgan.

Qo'llanma turli mulkchilik shaklidagi korxonalarning rahbarlari, mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'limi muhandis-texnik xodimlari, shuningdek, davlat yong'in nazorati organi inspektorlari va yong'in-texnik o'quv muassasalari talabalari uchun tavsiya etiladi.

© S.M. Djurayev, D.T. Valiyev, O.K. Xakimov J.B. Zokirov

KIRISH

Taxlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, sodir bo'layotgan yong'inlarning taxminan 40% yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari yordamida bartaraf etiladi. Yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari – yong'in rivojlanishining dastlabki bosqichida bartaraf etish uchun foydalaniladigan olib yuriladigan yoki ko'chma harakatlanuvchi yong'in o'chirish vositalaridir. Ob'ekt hududi, bino, inshoot va xonalar Yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga muvofiq yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari bilan ta'minlanishi zarur. [1].

Yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari bu – yong'in o'chog'ini boshlang'ich bosqichida qurshab olish va (yoki) bartaraf etish uchun mo'ljallangan qo'lda foydalaniladigan mexanizatsiyalashmagan [2] va mexanizatsiyalashgan [3] uskuna, modda, material va mahsulotlar.

Yong'inni o'chirishning birlamchi vositalariga barcha turdag'i olib yuriladigan yoki ko'chma harakatlanuvchi o't o'chirgichlar, kukun bilan to'ldirilgan (qum, perlit va boshqalar) idishlar, shuningdek, yong'inga chidamli to'qima matolari (asbest matosi, kigiz, namat va boshqalar), bochka va suv bilan to'ldirilgan idishlar, qo'lda foydalaniladigan mexanizatsiyalashmagan va mexanizatsiyalashgan yong'inga qarshi vositalari (ilgak, lom, belkurak, bolta, elektr simlarni kesish moslamalari, elektr, ichki yonish va siqilgan havo dvigatellari yordamida harakatlanuvchi uskunalar, gidroagregat va boshqalar) hamda yong'inga qarshi kran (shkaf)lar kiradi.

Yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari turlari va miqdori yonuvchi moddalarning mavjud yong'in xavfi va fizik-kimyoiy xossalari, ularning o't o'chirish moddalari bilan o'zaro ta'siri, shuningdek, ishlab chiqarish binolari, ochiq maydon va qurilmalarning maydonini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Ushbu vositalardan yong'in o'chirish ishlarini tashkil etish uchun kasbiy bilimlari bo'limgan insonlar ham yong'in-qutqaruv bo'linmalari yetib kelguniga qadar foydalanishlari mumkin.

1-bob. Yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari

1-§. Yong'inni o'chirishning birlamchi vositalaridan foydalanish tartibi

Xona, bino va inshootlarda joylashgan yong'inni o'chirishning birlamchi vositalarini doimo soz xolatda saqlanishi va ulardan foydalanishga tayyorligi uchun ushbu ob'ekt rahbari javobgar xisoblanadi.

Tashkilot rahbari tegishli buyruq yoki farmoyish asosida yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari va yong'inga qarshi inventarlariga javobgar shaxs (lar)ni biriktirishi kerak.

Sex, ustaxona, omborxona hamda boshqa bo'linmalarda yong'inni o'chirishning birlamchi vositalarining joylashishi, texnik xolatini nazorat qilish va foydalanish uchun doimo shay holatda saqlanishiga mas'ul (rahbar) shaxslar javobgar xisoblanadi.

Tashkilot rahbari tomonidan himoya qilinadigan xonalarning toifalarini inobatga olib, yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari xolatiga va foydalanilishiga javobgar shaxslar uchun foydalanish qo'llanmasi ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi kerak.

Xar bir ob'ektda yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari va yong'inga qarshi inventarlari foydalanishga qabul qilinganidan so'ng, ishchi xolati davriy tekshiruvlardan o'tkazilishi zarur.

2-§. Yong'inga qarshi qalqon va inventarlar. yong'inga qarshi qalqonlar bilan ta'minlash me'yorlari. foydalanish va davriy tekshirish tartibi

Yong'inga qarshi barcha inventarlar yong'inga qarshi qalqoni ichida, ishchi holatini saqlagan va foydalanishga qulay xolda joylashtirilishi kerak. Yong'inga qarshi qalqoni yong'in sodir bo'lgan vaqtida yong'in-qutqaruv bo'linmalari yetib kelguniga qadar, yong'inni keng maydonga tarqalishini oldini olish va bartaraf etish bo'yicha zarur bo'ladigan vositalar bilan ta'minlanadi.



Yong'inga qarshi inventarlarining joylashuvi, tarkibi, yozuv va ranglariga qo'yiladigan talablar Yong'in xavfsizligi qoidalari [1], GOST 12.4.009 [4] va GOST 12.4.026 [5] ga muvofiq belgilanadi.

Yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari va o't o'chirgichlar yong'inga qarshi qalqoni ichiga joylashtiriladi. Yong'inga qarshi qalqonlari avtomatik yong'in o'chirish qurilmalari o'rnatilmagan yoki ichki yong'inga qarshi suv ta'minoti bilan ta'minlanmagan barcha omborxona va ishlab chiqarish maydonlarida joylashtirilishi kerak. Shuningdek, tashqi yong'inga qarshi suv ta'minoti mavjud bo'lmagan ob'ektlar hududi yoki ularning binolari (inshootlari) tashqi texnologik qurilmalari tashqi yong'inga qarshi suv manbalaridan 100 m.dan uzoq masofada joylashgan taqdirda yong'inga qarshi qalqoni bilan jihozlanishi kerak. Yong'inga qarshi qalqonlari ko'rinarli hamda foydalanishga qulay bo'lgan joylarda o'rnatilishi zarur.

Yong'inga qarshi qalqonlarining tashqi qismi sutkaning qorong'u vaqtida tezda topilishi uchun aylanasiga 30-100 mm. o'lchamida oq bo'yoq bilan bo'yalishi kerak. Yong'inga qarshi qalqoni barcha yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari va anjomlarini oson joylashishini ta'minlash maqsadida, eni va balandligi 1500 mm.dan ko'p bo'lmagan o'lchamda tayyorlanadi va eshiklarini doimo yopiq xolatda saqlash uchun ilgaklar bilan ta'minlanadi. Ilgaklar sodir bo'lgan yong'in vaqtida oson ochilishini ta'minlab, yong'inga qarshi anjomlarini oson olishga imkon berishi kerak. Yong'inga qarshi anjomlari turli xildagi mix va simlar bilan mahkamlanishi mumkin emas. Bunday talab ularni oson echib olish va foydalanish uchun imkon beradi.

Ikkita tushuncha mavjud - **yong'inga qarshi qalqon** va **yong'inga qarshi stend**. Mohiyati bo'yicha bir xil. Lekin, yong'in xavfsizligi qoidalalarida ta'kidlanishicha qumli idish bilan ta'minlangan qalqon stend deb nomlanadi.


2.1. Yong'inga qarshi qalqonlar turlari va jamlanmasi

Yong'inga qarshi qalqonlarining turli xil ko'rinishi va jamlanmasi mavjud. Konstruktiv xususiyatlariga ko'ra yong'inga qarshi qalqonlari ochiq va yopiq turlarga bo'linadi hamda yog'och yoki temir materialidan tayyorlanadi. Temir materialidan ishlangan qalqonlar asosan yopiq turda tayyorlanadi.

Ochiq turdag'i yong'inga qarshi qalqon

Bu turdag'i qalqonlar konstruktiv xususiyati jihatidan tayyorlanishi sodda ko'rinishda bo'lib, yupqa qalinlikdagi temir yoki suvg'a chidamli faner materialidan tayyorlanadi va yong'inga qarshi inventarlarini o'rnatish uchun ilgaklar bilan ta'minlanadi. Ochiq turdag'i yong'inga qarshi qalqonlari devorga qotiriluvchi osma va ikki oyoqlar yordamida erda turuvchi turlariga bo'linadi.


Ochiq turdag'i yong'inga qarshi qalqonlaridan asosan yopiq turdag'i xona va maydonlarda foydalaniladi, bu esa yong'inga qarshi inventarlarini turli yog'ingarchilikdan asrash va foydalanish jarayonida qulaylikni ta'minlaydi.



Ochiq turdag'i yong'inga qarshi qalqon

Yopiq turdag'i yong'inga qarshi qalqon

Bu turdag'i qalqonlar temir quti ko'rinishida ishlaniib, temir zanjirsimon panjara yoki yopiq eshiklar bilan ta'minlanadi. Qalqon ichki qismi yong'inga qarshi inventarlarni joylashtirish uchun ilgaklar bilan ta'minlanib, ochiq turdag'i yong'inga qarshi qalqonlari kabi osma va erda turuvchi turlariga bo'linadi.



Yopiq turdag'i yong'inga qarshi qalqon


Yopiq turdag'i yong'inga qarshi qalqonning ochiq turdagilaridan farqi, bino va inshootlarning ichki va tashqi qismiga o'rnatishga mo'ljallangan. Yong'inga qarshi inventarlar joylashtirilgandan so'ng ilgak bilan yopilib, muhrlanadi, bu esa yong'in vaqtida kerakli vositalardan osonlik bilan foydalanish imkonini beradi.

Yong'inga qarshi inventarlari quyosh nuri to'g'ridan-to'g'ri tushishi hamda turli yog'ingarchiliklardan himoyalangan bo'lishi kerak. Shuning uchun bino va inshootlarning tashqi qismiga yopiq turdag'i yong'inga qarshi qalqonlari o'rnatiladi.

Ochiq maydonlarda yong'inga qarshi qalqonlarni o'rnatishga yo'l qo'yilmaydi, soyabon ostiga o'rnatilganlar bundan mustasno.

Yong'inga qarshi qalqonlarining jamlanmasi

Portlab yonish va yong'in xavfi darajalari turiga qarab, ochiq va yopiq turdag'i yong'inga qarshi qalqonlari beshta asosiy turga bo'linadi va ularning barchasi o'z belgilariiga ega.



YQQ-A - A sinfi (qattiq turdag'i moddalar)dag'i yong'inlarni o'chirish uchun mo'ljallangan yong'inga qarshi qalqon;

YQQ-B - B sinfi (turli yonuvchan suyuqliklar)dag'i yong'inlarni o'chirish uchun mo'ljallangan yong'inga qarshi qalqon;

YQQ-E - E sinfi (elektr qurilmalari)dag'i yong'inlarni o'chirish uchun mo'ljallangan yong'inga qarshi qalqon;

YQQ-T - ko'chma harakatlanuvchi yong'inga qarshi qalqon;

YQQ-QX - qishloq xo'jaligi ob'ektlari va tashkilotlaridagi yong'inlarni o'chirish uchun mo'ljallangan yong'inga qarshi qalqon. [1].

Yong'inga qarshi qalqoni yoniga o'rnatiladigan SUV saqlash sig'imi hajmi kamida $0,2 \text{ m}^3$ bo'lishi va chelaklar bilan ta'minlanishi kerak.

Qum saqlashga mo'ljallangan idishlar 3, 1 yoki $0,5 \text{ m}^3$ hajmga ega bo'lishi va belkurak bilan ta'minlanishi kerak. Qum oson olinishi va yog'ingarchilikdan himoyalangan bo'lishi kerak.

Yengil alanganuvchi va yonuvchi suyuqliklar saqlanadigan xona va ochiq maydonlarda yong'inga qarshi qalqoni bilan birgalikda qum solingan idishlar o'rnatilishi zarur. Portlab-yonish va yong'in xavfi bo'yicha A, B va V toifadagi xonalar va ochiq texnologik qurilmalari uchun idishlardagi qum zahirasi himoyalananadigan har bir 500 m^2 maydonga $0,5 \text{ m}^3$, G va D toifadagi xonalar va ochiq texnologik qurilmalari uchun esa himoyalananadigan har bir 1000 m^2 maydonga $0,5 \text{ m}^3$ dan kam bo'lmasligi kerak.

Yong'inga chidamli matolari (asbest, dag'al junli mato yoki namat) o'lchami kamida $1 \times 1 \text{ m}$. bo'lishi hamda ushbu mato o'lchamining 50 foizidan katta bo'limgan maydondagi va havosiz muhitda yonishi mumkin bo'limgan modda va materiallar yong'in o'chog'ini


o'chirish uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak. Yengil alangalanuvchi va yonuvchi suyuqliklaridan foydalanish va saqlash joylarida ushbu matolar o'chamlari $2 \times 1,5$ m. yoki 2×2 m.gacha oshirilishi mumkin.

Avtomobilarga yoqilg'i (benzin, gaz va dizel) quyish shahobchalariga xizmat ko'rsatuvchi avtomobillar vaqtinchalik va doimiy saqlanadigan joylar yong'in va turli favqulodda vaziyatlarda foydalanishi uchun qattiq qisqichli trosslari bilan ta'minlanishi kerak. [1].

YQQ-A turdagи yong'inga qarshi qalqoni jamlanmasi

Jamlanma quyidagilardan iborat: 2 ta XKO'O'-10 turdagи havo-ko'pikli o't o'chirgichlar, 1 ta lom, 1 ta bagor, 2 ta konussimon chelaklar, 1 ta belkurak va 1 ta nayzali belkurak.

Shuningdek, sig'imi $0,2 \text{ m}^3$ bo'lgan suv saqlash uchun bochka yoki idish. Qo'shimcha ravishda 1 ta KO'O'-5 turdagи kukunli o't o'chirgich bilan ta'minlanishi mumkin.



YQQ-B turdagи yong'inga qarshi qalqoni jamlanmasi

Jamlanma quyidagilardan iborat: 2 ta XKO'O'-10 turdagи havo-ko'pikli va 1 ta KO'O'-10 turdagи kukunli o't o'chirgichlar, 1 ta lom, 1 ta yong'inga qarshi mato (asbest mato, namat, kigiz va b.), 1 ta konussimon chelak, 1 ta belkurak va 1 ta nayzali belkurak hamda qum saqlash idishi. Qum saqlash idishi yong'in o'chirish maydoni o'chamiga qarab $0,5$, 1 va 3 m^3 sig'imga ega bo'lishi kerak.



YQQ-E turdagи yong'inga qarshi qalqoni jamlanmasi


Jamlanma quyidagilardan iborat: 2 ta UO'O'-5 turdagи uglekislotali, 1 ta KO'O'-10 yoki 2 ta KO'O'-5 turdagи kukunli va 2 ta XO'O'-2 turdagи xlodonli o't o'chirgichlar, 1 ta yong'inga qarshi mato (asbest mato, namat, kigiz va b.), yog'och dastakli ilgak, 1 ta belkurak, 1 ta dielektrik qaychi, 1 juft dielektrik qo'lqop, etik, gilam hamda qum saqlash idishi.

Ular elektr qurilmalari va liniyalarida sodir bo'lgan qisqa tutashuv, avariya va yong'lnlarni o'chirish uchun foydalaniladi.



YQQ-T-ko‘chma harakatlanuvchi yong‘inga qarshi qalqon jamlanmasi

Jamlanma quyidagilardan iborat: 1 ta KO‘O‘-5 turdagи kukunli yoki 2 ta HKO‘O‘-10 turdagи havo-ko‘pikli o‘t o‘chirgichlar, 1 ta lom, 1 ta nayzali belkurak, 1 ta konussimon chelak, 1 ta yong‘inga qarshi mato (asbest mato, namat, kigiz va b.), 6 ta ustundan iborat himoya ekrani. Ushbu turdagи qalqon jamlanmasining asosiy elementi yong‘inga qarshi anjomlarni tashish uchun aravacha, 1 ta qo‘l nasosi va 5 m. uzunlikdagi 1 ta yeng. Albatta 0,02 m³ suv sig‘imi (suvi bilan) mavjud bo‘lishi kerak.



YQQ-QX-qishloq xo‘jaligi ob‘ektlarida yong‘inni o‘chirish uchun mo‘ljallangan yong‘inga qarshi qalqon jamlanmasi

Jamlanma quyidagilardan iborat: 2 ta HKO‘O‘-10 turdagи havo-ko‘pikli, 1 ta KO‘O‘-10 yoki 2 ta KO‘O‘-5 turdagи kukunli o‘t o‘chirgichlar, lom, bagor, ikkita konussimon chelaklar, belkurak va nayzali belkurak, ayri va yong‘inga qarshi mato, shuningdek, 0,02 m³ suv saqlash bochka yoki sig‘imi.

2.2. Mexanizatsiyalashmagan qo‘lda ishlovchi yong‘inga qarshi asboblar turlari, asosiy ko‘rsatkichlari va o‘lchamlari

Foydalanish maqsadi va qo‘llanilish sohasiga qarab mexanizatsiyalashmagan qo‘lda ishlovchi yong‘inga qarshi asboblari quyidagi turlarga bo‘linadi:

yong‘inga qarshi bagorlar:

YQBM—to‘liq metalldan ishlangan (1-rasm);

YQBN—nasadkali (2- rasm);

YQK — yong‘inga qarshi kryuk (ilgak) (3- rasm).

yong‘inga qarshi lomlar:


YQLO — og‘ir (4- rasm);

YQLE — yengil (5- rasm);


YQLU — universal (6- rasm);

YO‘BB— yong‘in o‘chiruvchi-qutqaruvchi belbog‘li boltasi (7- rasm).


Qo‘l asboblarining o‘lchamlari va shakllari quyidagi chizmalarda aks ettirilgan.




1-rasm YQBM




2-rasm YQBN




3-rasm YQK




4-rasm
YQLO



5-rasm
YQLE



6-rasm
YQLU



7-rasm
YO'BB

Chizmalarga izoh: 1-7 chizmalar asboblarning konstruksiyasini belgilamaydi.

Mexanizatsiyalashmagan qo'lida ishlovchi yong'inga qarshi asboblariiga qo'yiladigan texnik talablar

Mexanizatsiyalashmagan qo'lida ishlovchi yong'inga qarshi asboblari GOST 16714 talablariga muvofiq o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan ishchi chizmalar bo'yicha tayyorlanishi kerak.

Lom, ilgak va bagorlar boshchalaridagi metallning mexanik tarkibi GOST 1050 bo'yicha 45 markadan kam bo'limgan po'latdan tayyorlanishi kerak.

Boltaning metall qismi mexanik xususiyatlari GOST 1435 bo'yicha U7 markali po'latdan kam bo'limgan metalldan yasalishi kerak.

Bolta to'liq metalldan izolyasiyalangan tutqichlar bilan tayyorlanishi mumkin.

Asboblarning qolgan metall qismlari GOST 1050 yoki GOST 380 bo'yicha uglerodli po'latdan tayyorlanishi kerak.

Payvandlash choklari silliq, begona qo'shimchalarsiz, quyishlarsiz va metallni kuydirishlarsiz bo'lishi kerak.

Asbob uchining ishchi qismlari o'tkirlanishi hamda uzunligi quyidagilardan kam bo'limgan holda termik ishlov berilishi kerak:

ilgaklar, bagorlar, lomlarning qayrilgan uchlari va boltalarning tig'lari uchun – 60 mm.;

lomlarning to'g'ri uchlari uchun – 150 mm.;

bolta tig'lari uchun – 15 mm. Asboblarning termik ishlov berilgan uchlaringning qattiqligi 48—54 HRC oralig'ida bo'lishi kerak.

Silliqmaslik (notekislik) ko'rsatkichi GOST 2789 bo'yicha $R_a \leq 2,5$ mkm.

Boltalarning tig'lari to'liq o'tkirlangan holda ishlab chiqarilishi kerak. Buyurtmachi bilan kelishilgan holda boltalar tig'lari qisman o'tkirlangan bo'lishi ham mumkin.

Asboblarning metall yuzalari yoriq, qil, asorat, ezilish, burmalar va zaksiz hamda asbobning mustahkamligi, tashqi ko'rinishi va foydalanish sifatlarini buzadigan boshqa nuqsonlarsiz silliq bo'lishi kerak.

Asboblar va ularning elementlari o'lchamlarining ruxsat etilgan tafovutlari GOST 7829 talablariga mos bo'lishi kerak.

Boltalarning tig'lari va uchi, shuningdek bagorlarning boshchalari o'rnatish teshigining o'tasidan o'tadigan tekislikda bo'lishi kerak.

O'z o'qidan (markazdan) og'ish 1,0 mm.dan oshmasligi kerak.

Asboblarning tashqi ishlov berilmagan sirtlari GOST 9.032-74, III-sinfi bo'yicha bo'yalgan bo'lishi kerak. Bo'yoq qoplamasni o'rniga korroziyaga qarshi noorganik qoplamlarni qo'llashga ruxsat etiladi.

Boltaning metall qismi dastagiga mustahkam va mahkam (chayqalishsiz) o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Bolta dastagi GOST 2695 talablari bo'yicha birinchi navli qattiq turdag'i yog'och maxsulotlari: qayin, tol, zarang, qora qayin yoki qayrag'ochdan tayyorlangan bo'lishi kerak.

Yog'och soz, namlik miqdori 15 abs. % dan oshmagan xolda, tugun, yoriq va chirishlarsiz bo'lishi kerak.

Bolta tutqichining yog'och dastasida uning uzunligining kamida uchdan ikki qismi masofada, diametri 6 mm.dan oshmaydigan ikkita birlashtirilgan tugunlarga ruxsat beriladi.

Yog'och tolalari bolta o'qining uzunligi yo'nalishi bo'ylab 1 metr uzunlikda 20 mm.dan ko'p bo'limgan holda cheklanishlar bilan o'tishi kerak.

Silliqmaslik (notekislik) ko'rsatkichi GOST 7016 bo'yicha $R_a \leq 0,63$ mkm. G'udurlar, o'yiklar, zorbalar va teshiklarga yo'l qo'yilmaydi. Yoriqlar faqat uzunligi 20 mm.dan oshmagan holda kirish uchida ruxsat etiladi.

Bolta dastasi GOST 9.032 bo'yicha, II-sinfga mansub yengil lakkak yoki zig'ir yog'i bilan bo'yalishi kerak.

2.3. Binolar (inshootlar) va hududlarni yong'inga qarshi qalqonlari bilan jihozlash me'yorlari

Yong'inga qarshi qalqonlarining turi va ularning talab qilinadigan soni, binolar (inshootlar) va tashqi texnologik qurilmalarining portlab yonish va yong'in xavfi bo'yicha toifasiga, bitta yong'inga qarshi qalqonining maksimal himoya maydoni va yong'in sinfiga ko'ra 1-jadvalga muvofiq aniqlanadi. [1].

Yong'inga qarshi qalqonlaridagi to'plamlar talablarga rioxaga qilgan xolda qulay va tezkorlik bilan olinishi ta'minlangan xolda joylashtirilishi kerak.

1-jadval

T/r	Xonalarning yoki tashqi texnologik qurilmalarning portlab-yonish va yong'in xavfi bo'yicha toifasi hamda xonalarning funksional vazifasi bo'yicha nomlanishi	Bir dona yong'inga qarshi qalqon bilan himoyalana-digan maydon, m ²	Yong'in sinfi	Qalqon turi
1.	A, B va V1-V4 (yonuvchi gazlar va suyuqliklar)	200	A B E	YQQ-A YQQ-V YQQ-E
2.	V1-V4 (qattiq yonuvchi modda va materiallar)	400	A E	YQQ-A YQQ-E
3.	G, D	1800	A B E	YQQ-A YQQ-V YQQ-E
4.	Qishloq xo'jaligi ekinlarini qayta ishslash korxonalarining xonalari va ochiq maydonlari	100	-	YQQ-QX
5.	Turli payvandlash va boshqa olovli ishlarni olib borishga mo'ljallangan xonalar	-	A	YQQ-T

2.4. Evakuatsiya qilish maqsadida yong'inga qarshi qalqonlarini qattiq tutqichlar bilan jihozlash me'yorlari

Avtomobillar joylashgan, saqlanadigan va vaqtinchada turadigan joylar, avtomobilarga yoqilg'i (benzin, gaz va dizel) quyish shahobchalari yong'in, avariya holati va halokat sodir bo'lganda avtomobilarni evakuatsiya qilish uchun 2-jadvalga muvofiq qattiq qisqichli trosslar bilan ta'minlanishi kerak. [6].

2-jadval

Ob'ekt nomi	Yoqilg'i quyish kolonkalari soni								Avtomobil, traktor va boshqa g'ildirakli texnikalar soni				
	1	2	3	4	5	6	7	8 va undan ko'p	10 gacha	25	50	100	100 tadan ko'p
Avtomobilarga yoqilg'i quyish shahobchalari (qattiq tutqichlari soni)	2	4	4	6	6	8	8	10	-	-	-	-	
Avtomobilarga gaz to'ldirish kompressor stansiyalari (qattiq tutqichlari soni)	2	4	4	6	6	8	8	10	-	-	-	-	
Neft maxsulotlarini to'kish estakadalari (qattiq tutqichlari soni)	2	4	4	6	6	8	8	10	-	-	-	-	
Avtobaza, avtoxo'jaliklar (qattiq tutqichlari soni)	2	4	4	6	6	8	8	10	2	4	6	10	Xar 10 ta avto (treyler, vagon)ga 1 ta
Mashina-traktor parklari (qattiq tutqichlari soni)	2	4	4	6	6	8	8	10	2	4	6	10	Xar 10 ta soni uchun (treyler, vagon)ga 1 ta
Garaj va garaj xo'jaliklari (qattiq tutqichlari soni)										2	4	8	Xar 15 ta soni uchun 1 ta, lekin 10 tadan kam emas
Ochiq turdag'i avtomobilarni saqlash joyi (qattiq tutqichlari soni)											2	4	Xar 40 ta avtomobil uchun 1 ta, lekin 5 tadan kam emas

Izoh: Qattiq tutqichlarning uzunligi 3 metrdan kam bo'lmasligi va yong'inga qarshi qalqonlarida joylashtirilishi kerak.

2.5. Yong'inga qarshi qalqon va vositalaridan foydalanish tartibi va davriy tekshiruvi

Yong'inga qarshi qalqonlari va vositalarini ishlatalishdan oldin, tashkilot tomonidan hisobga olish va foydalanish jurnali yuritilishi kerak.

**Yong'inga qarshi qalqoni va inventarlarini ro'yxatga
olish va foydalanish**
JURNALI*

1	2	3	Qalqonlar jamlanganligining dastlabki tekshiruvi natijalari va berilgan inventar raqami												Mas'ul shaxsning lavozimi, F.I.SH. va imzosi
			4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
			Lom	Bagor	Yog'och dastakli ilgak	Chelak	Elektr simlarni kesish uchun jamlanma	Yong'inga qarshi mato	Nayzali belkurak	Belkurak	Ayrlilar	Suv sig'imi, hamij	Qumli idish	Yong'in o'chirish yengi, diametri va uzunligi	

*Tavsiya etiladigan namuna

Tekshiruv jarayonida yong'inga qarshi qalqonining tashqi ko'rinishi, foydalanish maqsadi (tamg'asi)dan kelib chiqqan holda jamlanganligi, yozuvlari, uni o'rnatish joyining holati (o'rnatish joyini ko'rsatkichi, unga borish yo'lli ochiqligi) hamda himoya va bo'yoq qatlamlari tekshiriladi.

O'tkazilgan tekshiruv natijalariga ko'ra, yong'inga qarshi qalqonlari eshiklarining tashqi tomoni, qum uchun idish, suv uchun bochkalar va yong'inga qarshi inventarlarga (lom, belkurak, yong'inga chidamli mato va b.) tartib raqamlari va eng yaqin yong'in-qutqaruv qismining telefon raqami ko'rsatilgan holda yozilgan bo'lishi kerak. Yong'inga qarshi qalqonlarning tartib raqami «YQQ» harfli indeksidan so'ng ko'rsatiladi. [1].

Foydalanishdan olinib, ta'mirlash va sinov uchun olingan yong'inga qarshi inventarlar zahiradagilari bilan almashtirilishi kerak.

Qalqonlar va yong'inga qarshi inventarlar jamlanmasini saqlanishi va foydalanishi shayligiga javobgar shaxslar olti oyda kamida bir marotaba davriy tekshirishga, shuningdek, ob'ektida sodir bo'lgan avariya holatlari va yong'indan so'ng navbatdan tashqari ko'rildan o'tkazishga majburlar.

Yong'inga chidamli matolarni (asbest, kigiz va namat) qopqoqli metall qutilarda saqlash, uch oyda bir marotaba quritilishi va changdan tozalanishi tavsiya etiladi.

Yong'inga qarshi qalqonlari to'plami tarkibidagi mexanizatsiyalashmagan yong'inga qarshi qo'l asboblariga davriy ravishda quyidagi xizmatlar ko'rsatiladi:

chang, kir va korroziya izlarini tozalash;

GOST 16714 yoki GOST-12.4.026 standartiga muvofiq bo'yoqlarni tiklash;

foydalanishdan keyin qoldiq deformatsiyalarni bartaraf etish uchun lom va bagorlarni to'g'rilash;

GOST 12.3.023 talablarini inobatga olgan holda asboblar burchaklari charxini tiklash.

Tashkilotlarda o'tkazilgan davriy tekshirishlar natijalari bo'yicha yong'inga qarshi qalqon va inventarlarining davriy tekshiruvini qayd etish jurnalida tegishli belgilar qo'yiladi.

**Yong'inga qarshi qalqon va inventarlarining
davriy tekshiruvini qayd etish
JURNALI***

YQQ raqami yoki yong'inga qarshi inventar raqami va nomi	O'rnatilgan joyi	Tashqi ko'rinishi va holati	Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan choralar	Tekshiruv sanasi	Mas'ul shaxsning lavozimi F.I.SH. va imzo
1	2	3	4	5	6

*Tavsiya etiladigan namuna

3-§. Yong'inga qarshi shkaf va inventarlar. Foydalanish va davriy tekshirish tartibi

Yong'inga qarshi shkaf va inventarlar

Yong'inga qarshi shkaflar (YQSH) yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari, shaxsiy himoya vositalari, insonlar va moddiy boyliklarni qutqarish uchun mo'ljallangan vositalarni joylashtirish va saqlash uchun mo'ljallangan.

Yong'inga qarshi shkaflari: osma (**O**); ichki (**I**) va erga o'rnatilgan (**E**) turlariga bo'linadi. Osma YQSHlari bino va inshootlarning ichki qismi devorlariga (osiladi) o'rnatiladi. Ichki o'rnatilgan YQSHlari devorlar bo'shliqlari (ichki qismi)ga o'rnatiladi. Erga o'rnatilgan YQSHlari devor hamda devor bo'shliqlarida er (pol) yuzasiga tayangan holda o'rnatiladi.

Yong'inga qarshi shkaflari belgilangan tartibda tasdiqlangan konstruktorlik hujjatlari asosida tayyorlanishi kerak.

Yangi etkazib berilgan yong'inga qarshi shkaf va jamlanma vositalari (shkaf va o't o'chirgich) quyidagi me'yoriy xujjalalariga muvofiq bo'llishi kerak:

bosim ostida ishlovchi yong'in o'chirish yenglari - GOST R 51049 [7];

ulash boshchalar - GOST 28352 [8];

yong'in o'chirish klapanlari - GOST R 53278 [9];

yong'in o'chirish qo'l dastaklari - GOST 9923 [10];

olib yuriladigan o't o'chirgichlar - O'zDSt 1059 [11].



Kuchlanish ostidagi elektr qurilmalardan tashqari, modda va materiallarni alangananishi va yong'inlarni o'chirish uchun MO'LJALLANGAN

- ① Kalitni saqlash joyi
- ② Nasosni masofadan yoqish pulti
- ③ Yong'in o'chirish jo'mragi
- ④ Yong'in o'chirish yengi
- ⑤ Dastak

Yong'inga qarshi shkaf qurilmasi

Yong'inga qarshi shkaflarining turlari ularda o'rnatiladigan klapan, yeng, dastak va olib yuriladigan o't o'chirgichlarning soni hamda o'lchamlariga muvofiq aniqlanadi.

Yong'inga qarshi shkaflari 1,0 MPa ishchi bosimida ishlovchi 40, 50 yoki 70 mm. shartli diametrga ega bo'lgan (DN 40, 50 va 65 mm. klapanlar) yong'in o'chirish kranlari va diametri 38, 51 va 66 mm. bo'lgan yenglar bilan jamlanadi. Yenglar 10, 15 yoki 20 m. uzunlikda bo'lishi mumkin.



Yong'in o'chirish jo'mragi
(bosim ostida ishlovchi
klapan)

Bosim ostida ishlovchi klapan

Yong'in o'chirish berkitish klapani sifatida umumsanoat klapanlaridan foydalanishga ruxsat etiladi. Cho'yandan tayyorlangan klapanlar qizil rangga bo'yاليши kerak.

GR turdag'i (yeng) boshlariga mahkamlangan yong'in o'chirish yenglar, **GM** turdag'i (muftali) yoki **GS** turdag'i (tashqi rezbali sapka boshchali) boshchalar bilan yig'ilgan klapanlar 1,25 MPa dan kam bo'lmagan sinov bosimiga chidamli bo'lishi kerak.



GR turdag'i boshcha
(yeng boshchasi)



GM turdag'i boshcha
(muftali boshcha)




GS turdag'i boshcha
(tashqi rezbali sapka boshcha)

Yong'in o'chirish jo'mraklaridagi bosim ostida ishlovchi ichki klapanlari uchun yong'in o'chirish yenglari

Binolarda o'rnatilgan yong'inga qarshi shkaf va ichki yong'in o'chirish jo'mraklari uchun **KYO'E-I indeksli** yeng, tashqi yong'in o'chirish jo'mraklari uchun esa **KYO'E-T indeksli** yenglardan foydalaniladi [7].

Konstruktiv jihatdan yenglar tashqi qismi mato yoki to'qimali karkas va ichki qismi suv o'tkazmaydigan qoplamacadan iborat.

Ichki suv o'tkazmaydigan qoplam: rezina, lateks, poleuretan yoki polimer material (polietilen, polipropilen) yoki boshqa polimerlardan ishlab chiqiladi.



Yenglarning tuzilishi

Yengni belgilash namunasi

Ichki yong'in o'chirish kranlari uchun mo'ljallangan ichki qismi suv o'tkazmaydigan qatlamiga ega, tashqi qismi himoya qatlamisiz 50 shartli diametrli yenglar ishchi bosimi 1,0 MPa ni tashkil etib, ISH1 iqlim sharoitida foydalanish uchun mo'ljallangan **KYO'E-I-50-1,0-ISH**.

Yengning ikkala uchidan 0,5 metrdan ortiq bo'limgan masofada quyidagilarni aks ettiruvchi tamg'a bo'lishi kerak: ishlab chiqaruvchi tashkilotning nomi yoki savdo belgisi; yengning shartli belgisi (diametri); yeng uzunligi (KYO'E-Elari uchun) m.; ishlab chiqarilgan sana (oy, yil). Yeng jamlanmasida: GOST 2.601ga asosan yeng va formulyar bo'lishi kerak.




ichki yong'in o'chirish jo'mraklari uchun
diametri 77(80) da 1.0 MPa bo'lgan yong'in
o'chirish bosim yenglarining belgilanishi

3-jadval

Yong'in o'chirish jo'mraklari uchun yenglarning texnik xususiyatlari 3-jadvalda ko'rsatilgan.

Ko'rsatkich nomi	Nominal	Chegaraviy chetlanish
Uzunligi	10-21	-
Shartli diametri DN Yengning ichki diametri, mm	40, 50, 65, 80 38, 51, 66, 77	+2,0
Suv o'tkazmaydigan ichki qatlamning qalinligi (eng kami), mm	0,30	-
Ishchi bosim, MPa	1,0	-
Sinov bosimi, MPa	1,25	-
Yorilib ketishgacha bosimi (eng kami), MPa	2,0	-
Ustki mato qatlamini ishqalanib eskirishga qarshiligi (eng kami), sikllar	20	-
Xizmat muddati (eng kami), yil	5	-

Yong'in o'chirish shkaflari va yong'in inventarlari jamlanmasidan foydalanish va davriy tekshirish tartibi



4-§. O't o'chirgichlar. binolarni o't o'chirgichlar bilan jihozlash me'yorlari. foydalanish, tekshirish, texnik xizmat ko'rsatish va qayta zaryadlash tartibi

O't o'chirgichlarning tasniflanishi

O't o'chirgich - o't o'chirish vositasi yordamida yong'in o'chog'ini o'chirish (bartaraf etish) uchun mo'ljallangan qo'lda ishlovchi qurilma.

O't o'chirgichlar **olib yuriladigan** (og'irligi 20 kg.gacha) va **ko'chma harakatlanuvchi** (og'irligi 20 kg.kam bo'limgan va 400 kg.dan ko'p emas) turlarga bo'linadi. Ko'chma harakatlanuvchi o't o'chirgichlar o't o'chirish vositalari (keyingi o'rnlarda - O'O'V) bilan zaryadlangan, maxsus aravachalarga o'rnatilgan bir yoki bir nechta sig'imlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

O'zDSt 1059 [11] olib yuriladigan o't o'chirgichlarning umumiyl texnik talablari va

sinov usullarini belgilaydi.

O'zDSt 2589 [12] ko'chma harakatlanuvchi o't o'chirgichlarning umumiy texnik talablari va sinov usullarini belgilaydi.

Foydalaniладиган о't o'chirish moddasining turiga ko'ra o't o'chirgichlar quyidagilarga bo'linadi:

suvli (SO'O');

havo-ko'pikli (HKO'O');

kukunli (KO'O');

gazli, ular: uglekislotali (**UO'O'**); xladonli (**XO'O'**) o't o'chirgichlarga bo'linadi;

kombinatsiyalashgan.

Suvli o't o'chirgichlar **suvning chiqish oqimiga ko'ra** quyidagilarga bo'linadi:

ixcham oqimli o't o'chirgichlar – SO'O'(I);

sochma oqimli o't o'chirgichlar (tomchilarning o'rtacha diametri 100 mkm.dan ko'p) - SO'O'(S);

mayda zarralarga bo'lingan oqimli o't o'chirgichlar (tomchilarning o'rtacha diametri 100 mkm.dan kam) - SO'O'(M).

Havo-ko'pikli o't o'chirgichlar ular hosil qiladigan ko'pik oqimining xususiyatlari bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

past karrali, ko'pik karrasi 5 dan 20 gacha – HKO'O'(PK);

o'rta karrali, ko'pik karrasi 20 dan 200 gacha – HKO'O'(O'K).

Havo-ko'pikli o't o'chirgichlar ichidagi zaryadning kimyoviy xususiyatiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

Zaryadi uglevodoroddan iborat havo-ko'pikli o't o'chirgich - HKO'O'(U);

Zaryadi ftordan iborat havo-ko'pikli o't o'chirgich - HKO'O'(F).

O't o'chirish vositasining sizib chiqilishiga ko'ra o't o'chirgichlar quyidagi turlarga bo'linadi: gaz bilan to'ldirilgan (G); siqlgan gaz balloni bilan (SG) va gaz hosil qiluvchi element bilan (GE).

Ishchi bosimining qiymatiga ko'ra o't o'chirgichlar past bosimli (atrof-muhit harorati $(20 \pm 2)^\circ\text{S}$ bo'lganda ishchi bosimi 2,5 MPa ga teng yoki past) va yuqori bosimli (atrof-muhit harorati $(20 \pm 2)^\circ\text{S}$ bo'lganda ishchi bosimi 2,5 MPa dan yuqori) turlarga bo'linadi.

Texnik resursini tiklash imkoniyati va usuliga ko'ra o't o'chirgichlar quyidagi turlarga bo'linadi:

qayta zaryadlanadigan va ta'mirlanadigan;

qayta zaryadlanmaydigan (bir marta ishlataladigan).

O't o'chirishlarni turlarga bo'linishi va belgilanishi

Zaryadlangan o't o'chirish moddasining turiga va foydalanish sohasiga qarab
o't o'chirichlar quyidagi turlarga bo'linadi:

A sınıf – asosan kelib chiqishi organik bo'lgan, yonishi cho'g'lanish bilan kuzatiladigan qattiq moddalardagi (yog'och, mato, qog'oz) yong'inlarni o'chirish uchun;

B sınıf – yonuvchi suyuqliklar yoki eriydigan qattiq moddalardagi yong'inlarni o'chirish uchun;

C sınıf – gazsimon moddalardagi yong'inlarni o'chirish uchun;

D sınıf – metallar va ularning qorishma-laridagi yong'inlarni o'chirish uchun;

E sınıf – elektr uskunalari yonishi bilan bog'liq yong'inlarni o'chirish uchun.

Yong'in sınıfları	
	A Qattiq yonuvchi moddalar
	B Yonuvchi suyuqliklar
	C Yonuvchi gazlar
	D Metallar va metall tarkibli moddalar
	E ...Vdan ko'p bo'lmagan kuchlanishli elektr uskunalar

O't o'chirish vositalari bir necha yong'in sinflarini o'chirish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin.


O't o'chirish vositalari turli quvvatga ega modelli yong'in o'choqlarini o'chirish qobiliyatiga qarab quyidagicha belgilanadi. Standartlar bilan shakl va o'lchamlariga ko'ra, ikkita modelli yong'in o'choqlari belgilanadi ya'ni, A va B sinfdagi yong'in o'choqlari.

Modelli yong'in o'choqlari


A sinfiga kiruvchi yong'in o'chog'i qurilmasi kub shaklidagi yog'och shtabellari ko'rinishida bo'lib, 0,1 A dan 20 A gacha belgilanadi, A sinfidagi modelning erkin yonish yuzasi 0,48 dan 86,16 m² gacha oraliqda bo'ladi.

B sinfiga kiruvchi modelli yong'in o'chog'i po'lat tunukadan dumaloq tovoq shaklida yasalgan bo'lib, uning ichiga ma'lum miqdorda suv va avtomobil benzin yoqilg'isi quyilib, yondiriladi. Bunday o'choqlar 1B dan 144B gacha belgilanadi. Misol uchun 10B - 10 litr benzinni 3 sm. qalinlikda quyilib yoqilishi. (13B - mos ravishda 13 litr, 34B - 34 litr va h.k.). Modelli yong'in o'chog'ining tahminiy maydoni 0,03 dan 7,10 m² gacha tashkil etadi.

O't o'chirichining yong'in turini o'chirish belgisi uning tamg'asida ko'rsatiladi.



A sinfidagi yong'in o'chog'i qurilmasi
(yog'och shtabel)
1 – yog'och kublari; 2 – temir tirkak;
3 – beton (metall) tirkak



B sinfidagi yong'in o'chog'i qurilmasi
(dumaloq tovoq)
1 – dumaloq temir tovoq; 2 – benzin.

Gaz bilan to'ldiriladigan va siqilgan gaz ballonli o't o'chirgichlarida o't o'chiruvchi modda sifatida: havo, argon, SO_2 , geliy, azot yoki ularning aralashmasi bo'lishi mumkin.

Xladonli va kukunli o't o'chirgichlarda ishlatiladigan havoning shudring hosil bo'lish haroratining yuqori ko'rsatgichi ushbu o't o'chirgichlar foydalaniladigan eng past haroratdan yuqori bo'lmasligi kerak.

O't o'chirgichlar quyidagi havo haroratli muhit oraliqlaridan birida ish qobiliyatini ta'minlashi kerak: +5 dan +50° S gacha; -20 dan + 50°S gacha; -40 dan + 50°S gacha va -50 dan +50°S gacha.

Ballonlardan gazni o'z-o'zidan chiqib ketish miqdori quyidagi nisbatlardan oshmasligi kerak:

- bosim indikatori mavjud bo'lgan gaz bilan to'ldiriladigan o't o'chirgichlar uchun - yiliga ishchi bosimining 10 % ga teng miqdoridan;
- bosim indikatori bo'lмаган углекислотали ва gaz bilan to'ldiriladigan o't

o'chirgichlari uchun - yiliga 5 % yoki 50 g miqdoridan;

v) gaz balloonchalar uchun - yiliga 5 % yoki 7 g miqdoridan.


4.1. O't o'chirgichlarning turlari, tuzilishi va asosiy ko'rsatkichlari

4.1.1. Uglekislotali o't o'chirgichlar (UO'O')

UO'O' havo bo'limgan muhitda yonmaydigan turli yonuvchi moddalarni o'chirish uchun mo'ljallangan.

Olib yuriladigan 2, 3, 5, 8 va ko'chma harakatlanuvchi 10, 20, 40, 80 litr sig'imga ega uglekislotali o't o'chirgichlaridan kuchlanishi 10000 V. gacha bo'lgan elektr qurilmalarini o'chirish uchun foydalanish mumkin (kuchlanish darajasi o't o'chirgichning pasportida ko'rsatiladi).

Ulardan -40 dan +50 °S gacha bo'lgan havo haroratida foydalaniladi. O't o'chirish moddasi - uglerod ikki oksidi (SO_2).



Olib yuriladigan va ko'chma harakatlanuvchi uglekislotali o't o'chirgichlarning umumiy ko'rinishi

Uglekislotali o't o'chirgichlarning texnik tasnifi 4-jadvalda ko'rsatilgan.

O't o'chirgichning belgisi (turi)	Sig'imi, I	Zaryad og'irligi, kg	Maksimal ishchi bosimi, MPa (kgs/sm ²)	Zaryad chiqish davomiyligi vaqtি, s (kam emas)	Yong'in sinfi, model yong'in o'chog'i o'lchami	O't o'chirgich og'irligi, kg (kam emas)	Foydalanish havo harorati, °S
Olib yuriladigan							
UO'O'-1,5	1,5	1,05	15 (150)	8	10V	4,5	-40 +50
UO'O'-2	2	1,4	15 (150)	8	10V	6,5	-40 +50
UO'O'-3	3	2,1	15 (150)	8	13V	6,8	-40 +50
UO'O'-5	5	3,5	15 (150)	9	34V	14,0	-40 +50
UO'O'-6	6	4,2	15 (150)	10	34V	14,5	-40 +50
UO'O'-8	8	5,6	15 (150)	12	55V	15,8	-40 +50
Ko'chma harakatlanuvchi							
UO'O'-10	10	7,0	15 (150)	15	55V	30,0	-40 +50
UO'O'-20	20	14,0	15 (150)	15	55V	50,0	-40 +50
UO'O'-25	25	17,5	15 (150)	15	55V	75,0	-40 +50
UO'O'-30	30	21,0	15 (150)	15	89V	85,0	-40 +50
UO'O'-40	40	28,0	15 (150)	15	89V	110,0	-40 +50
UO'O'-80	2-40	56,0	15 (150)	15	144V	239,0	-40 +50


*Modelli yong'in o'chog'inining darajalari

4.1.2. Kukunli o't o'chirgichlar (KO'O')

Gaz bilan to'ldiriladigan KO'O'(g)

Kukunli o't o'chirgichlar o't o'chirish kukuni bilan zaryadlanib, 16 atm. gacha bo'lgan bosim ostida siqilgan gaz (havo, azot yoki uglerod ikki oksidi) bilan to'ldiriladi. Qo'llanilgan kukunlarning turiga qarab A, B, S yoki BS sinflaridagi, shuningdek kuchlanishi 1000 V gacha (E) elektr qurilmalarida sodir bo'lgan yong'inlarni o'chirish uchun mo'ljallangan.

O't o'chirgich qo'l harakati bilan erkin ochilish va yopilishi uchun klapan bilan ta'minlangan. O't o'chirgichning tepe qismiga o'rnatilgan bosim o'lchovchi manometr uning ishchan samaradorligini ko'rsatadi va bu esa o'rnatilgan bosim manbai bo'lgan o't



o'chirgichlarga nisbatan katta afzallik yaratadi.

O't o'chirgichlardan -40 dan +50 °C gacha bo'lgan haroratda foydalaniladi.



Olib yuriladigan va ko'chma harakatlanuvchi kukunli gaz bilan to'ldiriladigan
o't o'chirgichlarning umumiy ko'rinishi

5-jadval

Kukunli o't o'chirgichlarning texnik tasnifi 5-jadvalda ko'rsatilgan.

O't o'chirgich turi	Zaryad og'irligi, kg	O't o'chirish qobiliyati	Ishchi bosimi** MPa (kgs/sm ²)	Zaryad chiqish davomiyligi (kam emas)	Zaryad chiqish uzunligi, m	Gabarit o'chamlari HxLxB mm	Umumiy og'irligi, kg	Gaz balloni sig'imi, l
Olib yuriladigan								
KO'O'-1 (b)	0,85	1A*, 13B	1,2 (12)	5	3	137x100	2,2	0,06
KO'O'-1 (g)	1,0	1A, 13B	1,6 (16)	6	3	316x135	2,2	-
KO'O'-2 (g)	2,0	1A, 21B	1,6 (16)	6	3	325x150	3,7	-
KO'O'-3 (g)	3,0	2A, 34B	1,6 (16)	8	3	428x150	5,2	-
KO'O'-5 (g)	5,0	2A, 55B	1,6 (16)	10	3,5	450x320	8,2	-
KO'O'-5 (b)	5,0	2A, 55B	1,2 (12)	10	3,5	450x320	9	0,175
KO'O'-10 (g)	10,0	4A, 144B	1,6 (16)	13	4,5	628x350	16	-
KO'O'-10 (b)	10,0	4A, 144B	1,2 (12)	13	4,5	628x350	16	0,350
Ko'chma harakatlanuvchi								
KO'O'-50 (b)	42,5	10A, 233B	1,2 (12)	25	6	1020x460 x480	100	1,5
KO'O'-50 (g)	42,5	10A, 233B	1,2 (12)	20	6	1020x460 x480	85	-
KO'O'-100(g)	85,0	15A, 233B-3	1,2 (12)	45	6	1300x700 x1000	200	-
KO'O'-100(b)	90,2	15A, 233B-3	1,5 (15)	45	15	1170x630 x800	167	3,0

Gazgenerirlovchi elementli								
KO'0'-6 (ge)	5,0	2A, 55B	1,17±0,1 2 (11,7±1)	6	3,0	480x150	9	-
KO'0'-10(ge)	8,0	4A, 144B	1,17±0,1 2 (11,7±1)	10	4,5	730x150	13	-
Maxsus gaz bilan to'ldirilgan								
KO'0'-2(g)	2,0	2A, 21B	1,6 (16)	5	1-1,5	200x120	4,0	-
KO'0'-3(g)	3,0	2A, 34B	1,6 (16)	5	1-1,5	350x150	5,5	-
KO'0'-4(g)	4,0	2A, 55B	1,6 (16)	5	1-1,5	428x180	8,0	-
KO'0'-6(g)	6,0	3A, 89B	1,6 (16)	5	1-1,5	650x180	12,0	-
Universal***								
KO'0'-5(u)	4	2A, 55B	0,8 (8)	6	3	420x150	8,8	-
KO'0'-10(u)	9	4A, 144B	0,8 (8)	9	3	420x210	15,0	-

*Modelli yong'in o'chog'i darajasi:

**Atrof muhit havo harorati darajasi $20\pm 5^{\circ}\text{S}$ (bo'lgan holatda) uchun ishchi bosimi keltirilgan.

***Universal (birlashtirilgan) o't o'chirgichlari siqilgan gaz balloonli yoki gaz xosil qiluvchi balloonli bo'lishi mumkin.

1A - Kub shaklida taxlangan maydoni $1/8 \text{ m}^3$ bo'lgan yog'och shtabel yong'in o'chog'idagi yong'inlar, 2A - 2 barobar ko'p sig'imda yog'och shtabel ($1/4 \text{ m}^3$), 4A - 4 barobar ko'p sig'imdag'i yog'och shtabellar ($1/2 \text{ m}^3$) va x.k.


KO'0'(b) va KO'0'(g) turidagi ichki qismida bosim manbai bo'lgan siqilgan gaz balloonchali o't o'chirgichlar

Ichki qismida o'rnatilgan bosim manbai bo'lgan o't o'chirgichlar (siqilgan gaz balloonchali (b) yoki gazgenerirlovchi elementli (g)) foydalanilmayotgan vaqtida bosimsiz holda bo'ladi. Ishlatish uchun bosim manbasini ishga tushirib, 3 sekund vaqtidan so'ng o'chirishga kirishish lozim.

O't o'chirgichdan -40 dan $+50^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lgan haroratda foydalaniladi.



KO'0'(b) va KO'0'(g) TURDAGI
KUKUNLI O'T O'CHIRGICHNING
TUZILISHI



Olib yuriladigan va ko'chma harakatlanuvchi ichki bosim manbai bo'lgan kukunli o't o'chirgichning ko'rinishi

Kukunli o't o'chirgichlarning texnik tasnifi 6-jadvalda ko'rsatilgan.

O't o'chirgichning turi	Zaryad og'irligi, kg	Zaryad chiqish davomiyligi vaqtি, s	Otish uzunligi, m	Umumiyo'g'irligi, kg
KO'O'-5 (g), (b)	5	8	3,5	9,5
O'O'V-10 (g), (b)	10	10	4,5	16

4.1.3. Havo-ko'pikli o't o'chirgichlar (HKO'O')

Havo-ko'pikli o't o'chirgichlar cho'g'ilanayotgan materiallar hamda yonuvchi suyuqliklarni o'chirish uchun qulay. Konstruksiyasi tuzilishi havo-mexanik ko'pikni o'rta va past karrali qilib uzatilishini ta'minlaydi. Ftorlangan pylonka shakllantiruvchi ko'pik hosil qiluvchi zaryadlardan foydalanilganda havo ko'pikli o't o'chirgichlarning samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Havo-ko'pikli o't o'chirgichlar ularning korpusida bosim hosil bo'lishiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- gaz bilan to'ldiriladigan (t);
- bosim ostidagi ballon bilan (b).

Yong'in o'choqlariga olib borish (tashish) usuli bo'yicha - olib yuriladigan (umumiyo'g'irligi 20 kg.gacha) va ko'chma harakatlanuvchi (umumiyo'g'irligi 400 kg.gacha) o't o'chirgichlarga bo'linadi.

Havo-ko'pikli o't o'chirgichlarni elektr kuchlanishdagi jihozlarni o'chirishda, yuqori darajada qizigan yoki erigan moddalarni, shuningdek, suv bilan kimyoviy reyaksiyaga kirishib, yuqori darajali issiqlik ajralib chiqishi va sochilishi kuzatiladigan moddalarni o'chirishda foydalanish mumkin emas.


O't o'chirgichlarni ishlatalish havo harorati oralig'i: +5 dan +50 °C gacha.

Havo-ko'pikli o't o'chirgichlar A sinfidagi (organik turdag'i qattiq materiallar, alangananuvchan yog'och, qog'oz, latta va boshqalar) va B sinfidagi (alangananuvchi suyuqlik va qattiq moddalar, neft maxsulotlari, moy, bo'yoq va boshqalar) yong'lnlarni o'chirish uchun mo'ljallangan.

Havo-ko'pikli o't o'chirgichdan havosiz yonuvchi moddalar (paxta, piroksilin va boshqalar), yonuvchan metallar (ishqoriy natriy, yengil magniy va boshqalar)ni o'chirishda foydalanish mumkin emas.



Olib yuriladigan va ko'chma harakatlanuvchi gaz bilan to'ldiriladigan va yuqori bosimli ballonli havo-ko'pikli o't o'chirgichning umumiyo'g'irligi ko'rinishi



HKO'O'(b) va HKO'O'(g) TURDAGI
HAVO-KO'PIKLI O'T
O'CHIRGICHNING TUZILISHI

Havo-ko'pikli o't o'chirgichlarning texnik tasnifi 7-jadvalda ko'rsatilgan.

O't o'chirgichning turi	Sig'imi, I	Zaryad chiqish vaqtisi, s	Zaryad otish uzunligi, m
JKO'O'V-5 (g)	5	30	3
JKO'O'V-10 (g)	10	40	3
JKO'O'V-10 (b)	10	40	3
JKO'O'V-50 (g)	50	40	4
JKO'O'V-100 (g)	100	60	4

4.2. Binolarni o't o'chirgichlar bilan jihozlash me'yorlari

Texnologik uskunalarni o't o'chirgichlar bilan jihozlash, ushbu uskuna uchun texnik shartlar (pasport) talablariga yoki tegishli yong'in xavfsizligi qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi [1].

Chet elda ishlab chiqarilgan uskunalarni o't o'chirgichlar bilan jihozlash, ularni etkazib berish bo'yicha shartnomaga talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

O't o'chirgichlarning turlari va miqdori yonuvchi moddalarning fizik-kimyoviy va yong'in xavfli mavjud xossalari, ularning o't o'chiruvchi moddalariga bo'lgan aloqasini, shuningdek, ishlab chiqarish binolari, ochiq joylar va qurilmalarning maydonini hisobga olgan holda aniqlanadi.

O't o'chirgich turini (olib yuriladigan yoki ko'chma harakatlanuvchi) tanlash sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in o'choqlarining hajmiga bog'liq. Agar ular katta bo'lsa, ko'chma harakatlanuvchi o't o'chirgichlardan foydalanish kerak.

Foydalanish harorati chegarasiga ega bo'lgan o't o'chirgichlarni bino va inshootlarning iqlim sharoitlarini hisobga olgan xolda tanlash zarur.

Agar aralash yong'in o'choqlari bo'lsa, o't o'chirgichni tanlashda universal o't o'chirgichlariga e'tibor qaratiladi.

Turli toifadagi xonalarning to'liq maydonini himoyalash uchun (bitta yoki bir guruh o't o'chirgichlar bilan himoyalananadigan maksimal maydon) 8 va 9-jadvallarda «++» yoki «+» belgisidan oldin ko'rsatilgan turdag'i o't o'chirgichlar sonining birini tanlash kerak [1].

Jamoat binolari va inshootlarning har bir qavatida kamida ikkitadan kam bo'Imagan olib yuriladigan o't o'chirgichlar bo'lishi kerak.

Portlab-yonish va yong'in xavfi bo'yicha D toifadagi xonalarning maydoni 100 m^2 dan oshmasa, ushbu xonalar o't o'chirgichlar bilan jihozlanmasligi mumkin.

Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in o'chog'idan o't o'chirgich joylashgan joyigacha bo'lgan masofa: jamoat binolari va inshootlari uchun 20 m. dan; portlab-yonish va yong'in xavfi bo'yicha A, B va V toifadagi xonalar uchun – 30 m. dan, G toifadagi xonalar uchun – 40 m. dan, D toifadagi xonalar uchun – 70 m. dan oshmasligi kerak.

**Xonalarni olib yuriladigan o't o'chirgichlar bilan jihozlash
ME'YORLARI**

Xona toifasi	Himoyalanadigan chegara maydoni m ²	Yong'in sinfi	Havo-ko'pikli o't o'chirgichlar sig'imi	Kukunli o't o'chirgichlar, o't o'chirish moddasining og'irligi kg			Xladonli o't o'chirgichlar sig'imi, 2 (3) l	Uglekistotali o't o'chirgichlar sig'imi /kg	
				10 l	2	4		2	5
A, B, V1-V4 (yonuvchan gaz va suyuqliklar)	200	A	2++	-	2+	1++	-	-	-
		B	4++	-	2+	1++	4+	-	-
		C	-	-	2+	1++	4+	-	-
		D	-	-	2+	1++	-	-	-
		E	-	-	2+	1++	-	-	2++
V1-V4 (yonuvchan gaz va suyuqliklardan tashqari)	400	A	2++	4+	2++	1+	-	-	2+
		D	-	-	2+	1++	-	-	-
		E	-	-	2++	1+	2++	2+	4+
G	800	B	2+	-	2++	1+	-	-	-
		C	-	4+	2++	1+	-	-	-
G, D	1800	A	2++	4+	2++	1+	-	-	-
		D	-	-	2+	1++	-	-	-
		E	-	2+	2++	1+	2+	4+	2++
Jamoat binolari	800	A	4++	8+	4++	2+	-	-	4+
		E	-	-	4++	2+	4+	4+	2++

Izoh. 1. *Turli sinfdagi yong'inlarni o'chirishda kukunli o't o'chirgichlar tegishli zaryadga ega bo'lishi kerak: A sinf uchun – ABCE kukun; BCE sinflar uchun – BCE yoki ABCE va D sinf uchun D.*

2. «++» belgi bilan ob'ektlarni jihozlash uchun tavsiya etilgan o't o'chirgichlar ko'rsatilgan, «+» belgi bilan tavsiya qilingan o't o'chirgichlar bo'limgan taqdirda va tegishli asosga ega bo'limgan holda ruxsat etiladigan o't o'chirgichlar ko'rsatilgan, «-» belgi bilan bu ob'ektlarni jihozlash uchun ruxsat etilmagan o't o'chirgichlar ko'rsatilgan.

3. *Hajmi 50 m³ dan ko'p bo'limgan yopiq xonalardagi yong'inlarni o'chirish uchun olib yuriladigan o't o'chirgichlar o'rниga yoki ularga qo'shimcha ravishda o'z-o'zidan ishlab ketadigan kukunli o't o'chirgichlardan foydalaniadi.*

4. *Qozonxonalar har bir o't qalash qutisiga o't o'chirish vositasining og'irligi 4 kg. dan kam bo'limgan 1 dona kukunli o't o'chirgich yoki sig'imi 5 litrdan kam bo'limgan 1 dona ko'pikli o't o'chirgich bilan ta'minlanishi kerak.*

Xonalarni ko'chma harakatlanuvchi o't o'chirgichlar bilan jihozlash ME'YORLARI

Xona toifasi	Himoyalanadigan maydoni m ²	Yong'i n sinfi	Havo-ko'pikli o't o'chirgichlar sig'imi 100 l	Ko'pik-kukunli o't o'chirgichlar sig'imi 100 l	Kukunli o't o'chirgichlar, sig'imi 100 l	Uglekistlotali o't o'chirgichlar, sig'imi 100 l	
						25	80
A, B, V1-V4 (yonuvchi gazlar va suyuqliklar)	500	A	1++	1++	1++	-	3+
		B	2+	1++	1++	-	3+
		C	-	1+	1++	-	3+
		D	-	-	1++	-	-
		E	-	-	1+	2+	1++
V1-V4 (yonuvchi gaz va suyuqliklardan tashqari), G	800	A	1++	1++	1++	4+	2+
		B	2+	1++	1++	-	3+
		C	-	1+	1++	-	3+
		D	-	-	1++	-	-
		E	-	-	1+	1++	1+

Izoh. 1. Turli sinfdagi yong'inlarni o'chirishda kukunli va havo-ko'pikli o't o'chirgichlar tegishli zaryadga ega bo'lishi kerak: A sinf uchun – ABCE kukunlari; BCE sinflari uchun – BCE yoki ABCE hamda D sinf uchun – D kukuni.

2. «++», «+» va «-» belgilaringin ma'nolari 8-jadvaldagi 2-izohda keltirilgan.

Korxonadan qayta zaryadlash uchun yuborilgan o't o'chirgichlar, tegishli miqdordagi zaryadlanganlari bilan almashtirilishi kerak.

Kompyuter xonalari, telefon stansiyalari, muzeylar, arxivlar va boshqalarni himoya qilishda o't o'chirish vositalarining ushbu mahsulotlar, materiallar va boshqalar bilan o'zaro ta'sirini hisobga olish lozim. Ushbu xonalar yonuvchi moddalarning maksimal ruxsat etilgan konsentratsiyasini hisobga olgan holda xladonli va uglekistlotali o't o'chirgichlar bilan jihozlanishi lozim.

Statsionar avtomatik o't o'chirish qurilmalari bilan jihozlangan xonalar, o't o'chirgichlar bilan jihozlanishi sonidan kelib chiqib 50 % miqdorida ta'minlanishi kerak.

Ob'ektga o'rnatilgan har bir o't o'chirgich ustiga oq rangli bo'yoq bilan tartib raqami yozib qo'yilishi kerak. Unga belgilangan shaklda pasport yuritiladi.

O't o'chirgichlar har doim soz holatda saqlanishi, muntazam ko'zdan kechirilishi, tekshirilishi va o'z vaqtida qayta zaryadlanishi kerak.

Qish mavsumida (havo xarorati 1°C dan past haroratda), suv asosidagi zaryadli o't o'chirgichlar isitiladigan xonalarda saqlanishi kerak. Ushbu xonalarning eshigiga oq bo'yoq bilan "O't o'chirgichlar" deb yozib qo'yilishi kerak.

O't o'chirgichlarni yo'laklarda va o'tish joylarida joylashtirish odamlarni xavfsiz evakuatsiya qilishga xalaqit bermasligi kerak. Ular 1,5 m. dan ortiq bo'limgan balandlikda xonalardan chiqadigan joylarga yaqin joylarda joylashtirilishi kerak. [1]

4.3. O‘t o‘chirgichlardan foydalanish, davriy tekshirish, texnik xizmat ko‘rsatish va qayta zaryadlash tartibi

1. Olib yuriladigan va ko‘chma harakatlanuvchi o‘t o‘chirgichlarning davriy tekshiruvi, texnik xizmat ko‘rsatish va qayta zaryadlash tartibi **O‘zDSt 3414:2019 “Yong‘in texnikasi. Olib yuriladigan va ko‘chma harakatlanuvchi o‘t o‘chirgichlarni ta’mirlash va qayta zaryadlash. Umumiy texnikaviy talablar va sinov usullari”** bo‘yicha belgilanadi. [13]

2. Foydalanishga topshirilgan o‘t o‘chirgichlar davriy tekshiruvdan o‘tkazilishi, texnik xizmat ko‘rsatilishi va qayta zaryadlanishi kerak, bu esa o‘t o‘chirgichlarni doimiy shay holatda saqlanishi va barcha tarkibiy qismlarini ishchonchli ishlashini ta’minlaydi.

3. O‘t o‘chirgichlarning barcha turlari bosim ostida ishlovchi idishlar guruhiga mansub bo‘lib, ular bilan ishlashda va texnik xizmat ko‘rsatishda bosim ostida ishlovchi idishlarga qo‘yilgan talablarga rioya qilinishi kerak. O‘t o‘chirgichlarga texnik xizmat ko‘rsatish va qayta zaryadlash bilan shug‘ullanuvchi shaxslar texnik minimum (bosim ostida ishlovchi idishlar bilan ishlashda teknika xavfsizligi bo‘yicha zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalar va bilimlar) bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tishlari hamda imtihon topshirishlari kerak.

4. O‘t o‘chirgichning holati, o‘rnatilgan joyi, ishchonchli mahkamlanganligi, unga erkin etib borish imkoniyati, ishlatish bo‘yicha yo‘riqnomaning mavjudligi, joylashtirilganligi va o‘qilishini nazorat qilish maqsadida davriy tekshiruvlar o‘tkazilishi zarur.

5. O‘t o‘chirgichlarning davriy tekshiruvi korxona yoki tashkilot rahbarining buyrug‘i bilan tayinlangan, belgilangan tartibda texnik minimumdan o‘tgan shaxs tomonidan, foydalanish yo‘riqnomasiga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

6. Qayta zaryadlash yoki ta’mirlash va sinash uchun yuborilgan o‘t o‘chirgichlar, zahiradagi huddi shunday ko‘rsatkichli o‘t o‘chirgichlar bilan almashtirilishi kerak.

7. Tashkilot o‘t o‘chirgichlarni ishga tushirishdan oldin **A-ilovaga muvofiq o‘t o‘chirgichlarni hisobga olish va foydalanish jurnalini** yuritishi, shuningdek, ularni dastlabki tekshiruvdan o‘tkazishi kerak.

8. Tekshiruv jarayonida o‘t o‘chirgichni tashqi ko‘rinishi, to‘plamining to‘liqligi va o‘rnatilgan joyi holati (o‘t o‘chirgich yoki uning o‘rnatilgan joyini ko‘rsatuvchi belgini ko‘rinarligi, erkin borish imkoniyati mavjudligi), shuningdek, o‘t o‘chirgichni ishlatish bo‘yicha yo‘riqnomani o‘qilishi va tushunarligi o‘rganiladi.

Tashqi ko‘rinishini o‘rganishda quyidagilar nazorat qilinadi:

- a) o‘t o‘chirgichning korpusida, boshqarish tugunlari, gayka va boshchasida pachoqlangan, tirnalgan, chuqur chiziqlar yo‘qligi;
- b) himoyaviy va bo‘yoq qoplamarining holati;
- v) aniq va tushunarli yorliqning mavjudligi;
- g) himoyalovchi qurilmaning holati;
- d) manometr yoki bosim indikatorining sozligi (agar u o‘t o‘chirgich konstruksiyasida ko‘zdautilgan bo‘lsa), gaz bilan to‘ldirilgan o‘t o‘chirgich yoki ichida o‘rnatilgan gaz ballonidagi bosim miqdori ko‘rsatkichlari va kerakli tamg‘anining mavjudligi;

e) o't o'chirgich hamda undagi o't o'chirish moddasi (O'O'M)ning og'irligi indikator (manometr)lari mavjud bo'lmanan o't o'chirgichlar uchun (hisoblash yo'li bilan aniqlanadi);

j) egiluvchan shlang (agar mavjud bo'lsa) va O'O'Mning purkagichi (mexanik shikastlanishlar, korroziya izlari, quyma yoriqlar yoki o't o'chirgichdan O'O'Mni chiqishiga to'sqinlik qiluvchi boshqa narsalarning mavjudligi) holati;

z) olib yuriladigan o't o'chirgichni devor yoki yong'inga qarshi shkafga, ko'chma harakatlanuvchi o't o'chirgichni tashib yuruvchi aravachaga mustaxkam qotirilganligi va harakatlanuvchi qismining holati.

9. Dastlabki tekshirish natijalariga ko'ra, o't o'chirgichga tartib raqami berilib, yozib qo'yiladi hamda o't o'chirgichlarni hisobga olish va foydalanish jurnaliga tegishli belgi qo'yiladi (**A ilova [13]**).

10. Davriy tekshirishlar har choraklik va har yillik tekshiruvlarga bo'linadi.

11. **Har chorakda** o'tkaziladigan tekshiruvlar 8-bandda ko'rsatilgan zarur tekshiruvlar doirasida amalga oshiriladi [13].

12. **Yillik tekshiruvlar** 8-bandga muvofiq zaruriy tekshirishlarning butun hajmi va qo'shimcha ravishda bosim o'lchagich manometri bo'lmanan o't o'chirgichlarda O'O'M yoki gazni o'z o'zidan sizib chiqish miqdorini aniqlashni, shuningdek, o't o'chirgichlarning ballonlarini navbatdagi texnik ko'rikdan o'tkazish muddatini nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

Ballonlarni texnik ko'rikdan o'tkazish bosim ostida ishlaydigan idishlarning tuzilishi va xavfsiz ishlatish qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

13. Gazni o't o'chirgichdan o'z o'zidan sizib chiqish miqdorini o't o'chirgich va o't o'chirish moddasi vaznini o'lhash yo'li (ohirgisi hisoblash yo'li bilan) bilan aniqlanadi.

14. Olib yuriladigan o't o'chirgichlardagi o't o'chirish moddasini o'z o'zidan sizib chiqish miqdori quyidagilardan oshmasligi kerak:

a) bosimni o'lchovchi manometri bo'lgan gaz bilan to'ldiriladigan o't o'chirgichlar uchun – yiliga ishchi bosimning 10 %;

b) bosim o'lchovchi manometri bo'lmanan uglekislotali va gaz bilan to'ldiriladigan o't o'chirgichlar uchun – yiliga 5 % yoki 50 g (qiymatlarning eng kichigi olinadi);

v) gazli ballonchalar uchun – yiliga 5% yoki 5 g (qiymatlarning eng kichigi olinadi).

14.1 Ko'chma harakatlanuvchi o't o'chirgichlardagi o't o'chirish moddasini o'z o'zidan sizib chiqish miqdori quyidagilardan oshmasligi kerak:

a) uglekislotali va xlodon bilan to'ldiriladigan o't o'chirgichlar, shuningdek, gaz ballonchalari uchun – yiliga O'O'Mni yoki zaryadlangan gazni dastlabki og'irligidan 5%;

b) boshqa turdag'i gaz bilan to'ldirilgan o't o'chirgichlar va o't o'chirgich korpusidan tashqarida joylashgan gaz ballonlar uchun - yiliga zaryad bosimidan 10 %.

Agar ushbu o'lchovlarni tashkilotning o'z bazasida amalga oshirishni iloji bo'lmasa, u holda O'O'M yoki gazni sizib chiqishi miqdorini aniqlash maqsadida, ushbu yo'nalish bo'yicha yong'in xavfsizligi sohasidagi ishlarni bajaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar jalb qilinadi.

15. Ob'ektning yong'in xavfi darajasi yuqori (A toifadagi xonalar) yoki o't o'chirgichlarga doimiy ravishda atrof muhit harorati (40°C dan baland) musbat yoki (-40°C dan past) manfiy chegara qiymatiga yaqin, havoning nisbiy namligi (25°C haroratda) 90 %, korroziyanishga faol bo'lgan muhit, tebranishlar ta'siri va h.k.lar kabi noqulay omillar ta'sirida foydalaniladigan o't o'chirgichlarni tekshirish nazarda tutilgan har yillik tekshiruvlar 6 oyda kamida bir marotaba o'tkazilishi kerak.

16. O'tkazilgan tekshiruvlar davomida kamchiliklar aniqlansa, chetlanishlarni kelib chiqish sabablarini darhol bartaraf etish va ushbu sohaga ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb qilgan holda o't o'chirgichlarni qayta zaryadlash zarur.

17. Tashkilotlarda o'tkaziladigan davriy tekshiruvlar natijalari bo'yicha **B ilovaga** muvofiq **o't o'chirgichlarni davriy tekshiruvini hisobga olish jurnaliga** tegishli belgi qo'yilishi kerak.

18. Barcha o't o'chirgichlar foydalaniganidan so'ng yoki O'O'Mning o'z o'zidan sizib chiqish miqdori bir yilda ruxsat etilgan qiymatdan oshsa, **10-jadvalda** ko'rsatilgan muddatlardan ko'p bo'lmasagan holda, qayta zaryadlanishi kerak.

19. Transport vositalari kabinetlari yoki saloni tashqarisiga o'rnatilgan va noqulay iqlim va (yoki) fizik omillar ta'sirida bo'lgan kukunli o't o'chirgichlar bir yilda kamida bir marotaba, transport vositasidagi qolgan o't o'chirgichlar ikki yilda kamida bir marotaba qayta zaryadlanishi kerak.

20. 5 yilda kamida 1 marotaba:

a) gazli, kukunli, suvli, ko'pikli va havo-emulsiyalii ichki yuzasi polimer yoki epoksid qoplamlari bilan himoyalangan o't o'chirgichlarning korpuslari, korpuslari zanglamaydigan po'latdan yasalgan o't o'chirgichlar, siqilgan gazli ballonchalar, ochib-yopish klapani va purkagich bilan jihozlangan egiluvchan shlanglar gidravlik mustahkamligi bo'yicha sinovlardan o'tkazilishi kerak.

10-jadval

O't o'chirgichlarni qayta zaryadlash muddatlari 10-jadvalda ko'rsatilgan.

Foydalilaniladigan O'O'M turi	O't o'chirgichni qayta zaryadlash muddati
Suv, suvli qo'shimchalar	1 yilda 1 marotaba*
Ko'pik	1 yilda 1 marotaba*
Kukun	5 yilda 1 marotaba
Uglekislota (uglerod ikki oksidi)	5 yilda 1 marotaba
Xladon	5 yilda 1 marotaba

* Uglevodorod ko'pigi asosli ko'p tarkibli turg'unlashtirilgan zaryadga ega bo'lgan o't o'chirgichlar 2 yilda kamida bir marotaba qayta zaryadlanishi kerak.

b) ishga tushirish klapanlari, shlanglar va bosim ostida ishlovchi klapanlarning germetikligi pnevmatik tekshiruvdan o'tkazilishi kerak.

21. Ichki yuzasi polimer yoki unga tenglashtirilgan qoplama bilan korroziyadan himoyalangan suvli, ko'pikli va havo-emulsiyali o't o'chirgichlar bir yilda kamida bir marotaba gidravlik sinovdan o'tkaziladi va tekshiriladi.

22. O'zbekiston Respublikasining "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi qonunining 17-bandida o't o'chirgichlarga texnik xizmat ko'rsatish va qayta zaryadlash bilan bog'liq faoliyat yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasidagi ishlar va xizmatlar jumlasiga kirishi belgilab qo'yilgan.

O't o'chirgichlarga texnik xizmat ko'rsatish, qayta zaryadlash va o't o'chirish muddasini yo'q qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning (keyingi o'rnlarda – maxsus tashkilotlar) ta'sis hujjatlarida ushbu faoliyat turi ko'rsatilishi shart.

23. Maxsus tashkilotlar yong'in xavfsizligi bo'yicha rahbariy xujjatiga RH 03-110:2013 va boshqa me'yoriy-texnik ish turi bo'yicha (standart, me'yor, qoida, texnologik reglamentlar va h.k.) asosan o't o'chirgichlarga texnik xizmat ko'rsatadilar va qayta zaryadlashni amalga oshiradilar.

24. Maxsus tashkilot quyidagilarni amalga oshirishi kerak:

a) maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va (yoki) yo'naliш (bosim ostida ishlovchi sig'imlar bilan xavfsiz ishslash) bo'yicha kamida 3 yillik tajribaga ega, shuningdek, turli xildagi o't o'chirgichlar va O'O'M bo'yicha me'yoriy va texnik hujjatlar talablarini biladigan xodimlarga ega bo'lishi;

b) maxsus tashkilotlar bosim ostida ishlovchi sig'imlar bilan xavfsiz ishslash bilan bog'liq ishlarni bajarish uchun Sanoat xavfsizligi Davlat qo'mitasi ruxsatnomasiga ega bo'lishi;

v) so'rvuchi shamollatish tizimi bilan jihozlangan xonalari (amaldagi me'yoriy xujjatlarga asosan) va zarur omborxonalarini bo'lishi;

g) o't o'chirgichlardan to'kiladigan O'O'M qoldiqlarini yig'ish uchun zarur idishlarga ega bo'lishi;

d) O'O'Mni yo'q qilish uchun zarur jihozlarga ega bo'lishi;

e) o't o'chirgichlarni qismlarga ajratish, ta'mirlash, bo'yash, quritish va zaryadlash ishlarini amalga oshirish uchun zarur asbob va uskunalar, shuningdek, xavfsiz yoritish (kuchlanishi 36 V dan ko'p bo'limgan) manbaiga ega bo'lishi;

j) o't o'chirgichlar va O'O'M asosiy ko'rsatkichlarini nazorat qilish, shuningdek, kerakli sinovlarni o'tkazish uchun sertifikatlangan o'Ichov asboblariga ega bo'lishi;

O't o'chirgichlarga texnik xizmat ko'rsatish va qayta zaryadlash uchun tavsiya etilgan uskunalar va o'Ichov vositalarining ro'yxati **V ilovada** keltirilgan;

z) ushbu xujjatning **G ilovasida** keltirilgani kabi bajarilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar, bajarilgan sanasi, o't o'chirgichga to'ldirilgan O'O'M turi, tashkilot nomi va yuridik manzili, shuningdek, **E ilovasiga** muvofiq foydalanish bo'yicha zarur yo'riqnomalar va piktogrammali yorliqlarga ega bo'lishi;

i) faoliyat yo'naliishi bo'yicha zarur me'yoriy-texnik xujjatlarga ega bo'lishi.

O't o'chirgichlarga texnik xizmat ko'rsatish va qayta zaryadlash uchun tavsiya etilgan me'yoriy-texnik xujjatlari **D ilova**da keltirilgan.

25. Davriy tekshirishlar davomida o't o'chirgichlarda quyidagi kamchiliklar aniqlansa, texnik xizmat ko'rsatilishi kerak:

- a) o't o'chirgichda tamg'a, muhr, shuningdek, qulflash moslamasining shikastlanishi yoki etishmasligi;
- b) o't o'chirgich korpusida, shuningdek, qulflash va ishga tushirish moslamasida mexanik shikastlanish yoki korroziya izlari mavjudligi;
- v) o't o'chirgichda ishchi bosimning yo'qligi (gaz bilan to'ldiriladigan o't o'chirgichlar uchun);
- g) gazli o't o'chirgichlar yoki siqib chiqaruvchi gaz ballonlarda gazning sizib chiqish miqdori ruxsat etilgan qiymatdan oshib ketishi;
- d) qayta zaryadlash, ballonlarni texnik ko'rikdan o'tkazish yoki gidravlik (pnevmatik) sinash muddati o'tganligi.

Bundan tashqari, me'yoriy-texnik hujjatlarda nazarda tutilgan kafolatlangan foydalanish muddati va kafolatlangan saqlash muddati o'tgan, shuningdek, foydalanilgandan so'ng yoki navbatdagi texnik ko'rikdan o'tkazish muddati kelgan o't o'chirgichlarga texnik xizmat ko'rsatilishi kerak.

O't o'chirgichlarga texnik xizmat ko'rsatish, qayta zaryadlash va O'O'M yo'q qilish yong'in xavfsizligi rahbariy hujjati RDPB 03-110:2013 talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Maxsus tashkilot GOST 2.601 asosida texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha reglamentini ishlab chiqadi. O't o'chirgichlarni qayta zaryadlash ularga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq zarur jarayonlar bajarilganidan so'ng amalga oshiriladi. Saqlashning kafolat muddati tugagan yoki ko'rsatkichlari bo'yicha tegishli me'yoriy-texnik xujjatlari talablariga javob bermaydigan o't o'chirish moddalari yo'q qilinishi kerak.

A ilova

O't o'chirgichlarni hisobga olish va foydalanish JURNALI

O't o'chirgichni dastlabki tekshiruv natijalari										
O't o'chirgich turi, nomi va ishlab chiqargan tashkilotning nomi	Ishlab chiqarilgan vaqt va ishlab chiqaruvchi tomonidan nomlanishi	O't o'chirgichga berilgan tartib raqami	Foydalanishga qo'yilgan vaqt va o'matilgan joyi	Zaryadlangan yong'in o'chiruvchi mudda turi (konsentratsiyasi)	O't o'chirish vostitasining og'irligi	Ishchi bosimi * (bosim indikatori mavjud bo'lsa), yoki gaz ballon og'irligi **	O't o'chirgichning tashqi ko'rinishi va qismalarning holati	Ko'chma harakatlanuvchi o't o'chirgich yurish qismaning holati	Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'nigan choralar	Mas'ul shaxs lavozimi, F.I.SH. va imzosi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11

Izoh: *o't o'chirgich korpusidagi yoki gaz balloonidagi bosim (agar u tashqarida joylashgan va bosim ko'satuvchi manometr yoki indikator bilan jihozlangan bo'lsa).

**o't o'chirgichdan O'O'Mni siqib chiqaruvchi balloonning gaz bilan to'ldirilgan og'irligi. Agar balloon o't o'chirgich korpusi ichida joylashgan bo'lsa uning og'irligi bir yilda bir marotaba aniqlanadi (kukunli o't o'chirgichlar uchun – tanlab olish yo'li bilan) va o't o'chirgich pasportida ko'satilgan qiymat solishtiriladi.

B ilova

O't o'chirgichlarni davriy tekshiruvini hisobga olish JURNALI

O't o'chirgich turi va raqami	Tekshiruv turi va sanasi	O't o'chirgichning tashqi ko'rinishi va qismlarining holati	O't o'chirgich o'mnatilgan joyi	Ishchi bosimi * (bosim indikatori navijud bo'lsa) yoki balloon og'irligi **	Ko'chma harakatlanuvchi o't o'chirgich yurish qismining holati	Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rigan choralar	Mas'ul shaxs lavozimi, F.I.SH. va imzosi
1	2	3	4	5	6	7	8

V ilova

O't o'chirgichlarni sinash, ta'mirlash va qayta zaryadlash ishlarini olib borish uchun foydalilaniladigan anjomlar, uskunalar va asboblar

RO'YXATI

1. O'O'Mni o't o'chirgich korpusiga to'ldirish (chiqarib yuborish) uchun uskuna.
 2. Korpusni tozalash va buning uchun kerakli asbob va uskunalar.
 3. O't o'chirgich korpuslarini bo'yash uchun kerakli asbob va uskunalar.
 4. ITQni germetiklikka tekshirish uchun kerakli asbob va uskunalar.
 5. O't o'chirgich korpuslari mustaxkamligi va germetikligini tekshirish uchun kerakli asbob va uskunalar.
 6. O't o'chirgich korpuslariga siqib chiqaruvchi gaz to'ldirish uchun qurilma.
 7. GOST OIML R 76-1 bo'yicha o'rta sinf aniqlikdagi tarozi.
 8. Rezbali kalibr to'plamlari.
 9. Quritilgan havoning namligini o'lchash uchun qurilma.
 10. O'O'M namligini aniqlash uchun uskuna.
- Kukunli o't o'chirgichlar uchun qo'shimcha:**

Suvli, havo-emulsiyali, havo-ko'pikli va xlodonli o't o'chirgichlar uchun qo'shimcha:

11. O'z DSt talabiga muvofiq o't o'chirgich qobig'ining ichki qoplamasini yaxlitligini tekshirish uchun uskuna yoki shunga o'xshash.

12. Quritilgan havoning namligini o'lchash uchun qurilma.

Uglekislotali o't o'chirgichlar uchun qo'shimcha:

13. Uglekislotadan namlikni ajralib chiqishi va boshqa aralashmalarni filtrlovchi element.

14. Uglekislotali ballonlar uchun filtrli tindirgich.

G ilova

O't o'chirgichga biriktirilgan yorliqning shakli va mazmuni



Ta'mirlash va qayta zaryadlashni o'tkazgan		
tashkilot nomi va yuridik manzili		
Texnik ko'rik o'tkazilgan sana	Qayta zaryadlash o'tkazilgan sana	O'O'M markasi va turi
Gidravlik (pnevmatik) sinov		
O'tkazilgan sana	Sinov bosimi ko'rsatkichi	
O't o'chirgichning keyingi sinov sanasi		
		Ish sifatiga javobgar shaxsning F.I.SH.

**O‘t o‘chirgichlarni ta’mirlash va qayta zaryadlash ishlarini olib borish uchun zarur
bo‘lgan me’yoriy-texnik xujjatlar**

RO‘YXATI

№	Me’yoriy xujjatni nomi	Me’yoriy xujjatning belgilanishi
1	Davlat standarti “Yong‘in texnikasi. Olib yuriladigan o‘t o‘chirgichlar. Umumiy texnikaviy talablar. Sinov usullari”	O‘z DSt 1059
2	Davlat standarti “Yong‘in texnikasi. Ko‘chma harakatlanuvchi o‘t o‘chirgichlar. Umumiy texnikaviy talablar. Nazorat usullari”	O‘z DSt 2589
3	Davlat standarti “Umumiy maqsad uchun o‘t o‘chirish kukunlari. Umumiy texnikaviy talablar. Sinash usullari”.	O‘z DSt 2936
4	СПКП. Газовые огнетушащие составы. Номенклатура показателей.	GOST 4.106
5	Пенообразователи для тушения пожаров. Общие технический требования и методы испытаний.	GOST R 50588
6	Yo‘riqnomalar “Yong‘inlarni o‘chirishda ko‘pik xosil qiluvchi moddalardan foydalanish tartibi”	O‘zbekiston Respublikasi IIV YXBB boshlig‘i tomonidan 2004 yil 01 iyul kuni tasdiqlangan.
7	Davlat standarti “Yong‘in texnikasi. Olib yuriladigan va ko‘chma harakatlanuvchi o‘t o‘chirgichlarni ta’mirlash va qayta zaryadlash. Umumiy texnikaviy talablar va sinov usullari”.	O‘z DSt 3414

Kukunli o't o'chirgich yorlig'inining shakli

Ishlab chiqargan tashkilot maxsulot belgisi	Ishlab chiqargan tashkilot nomi	Milliy muvofiqlik belgisi	
KUKUNLI O'T O'CHIRGICH OP-10(b) - ABCE – 01			
Ts yoki O'z DSt (va sertifikat №)			
4A	144B	C	E
Kukun turi - AVSE markasi - "Vekson - AVS" og'irligi - (10,0 ± 0,5) kg			
 Сорвать пломбу, выдернуть чеку	 Поднять рычаг до отказа или ударить по юношке	 Направить ствол - насадок на очаг пожара и через 5 с нажать на курок	 Приступить к тушению пожара
DIQQAT! O't o'chirgich 10 kV gacha bo'lgan kuchlanishdagi elektr uskunalarni 2 m.dan kam bo'limgan xavfsiz masofada o'chirish uchun yaroqlidir.			
O't o'chirgichni qo'llash va saqlash xarorati- 50 °S dan + 50 °S gacha O't o'chirgichni cho'kish, ochiq quyosh ta'siridan va isitish qurilmalaridan saqlanadi.			

 A Qattiq yonuvchi modda	 B Yonuvchi suyuqlik	 C Yonuvchi gazlar	 E 1000 V gacha bo'lgan kuchlanishdagi elektr uskunalar
O't o'chirgich ishchi bosimi ($0,9 \pm 0,1$) MRa O't o'chirgichni sinovi jarayonidagi bosimi -1,5 MRa Siqib chiqaruvchi gaz – havo, havo og'irligi - (60 ± 5) g			
O't o'chirgichni brutto (idishi bilan) og'irligi - (15 ± 1) kg O't o'chirgichni ishlataliganidan keyin darhol zaryadlash Ikki yilda bir marotabadan kam bo'limgan xolda tekshirish Besh yilda bir marotabadan kam bo'limgan holda sinash va qayta zaryadlash zarur			
O't o'chirgichni ishlab chiqarilgan sanasi Ishlab chiqaruvchi tashkilot manzili va telefon raqami O'zbekistonda ishlab chiqarilgan			

Uglekislotali o't o'chirgich yorlig'ining shakli

Ishlab chiqargan tashkilot maxsulot belgisi	Ishlab chiqargan tashkilot nomi	Milliy muvofiqlik belgisi	
UGLEKISLOTALI O'T O'CHIRGICH OU-3-BCE			
Ts yoki O'z DSt (va sertifikat №)			
34B	C	E	
Uglerod ikki oksidi og'irligi - 3,00-0,15 kg			
O't o'chirgichning 20 °S xaroratdagi ishchi bosimi (5,8±0,1) MPa		O't o'chirgich echiladi O't o'chirgichni ishlatilga-nidan va yong'in o'chog'iga keyin darhol zaryadlash olib boriladi	
O't o'chirgichni sinov jarayonidagi bosimi - 22,5 MPa		Plomba uziladi va Bir yilda bir marotabadan kam chekasi sug'irib bo'limgan xolda tekshiriladi. O't o'chirgich zaryadining ruxsat etilgan sizib chiqishi – yiliga 50 g. dan ko'p emas	
O't o'chirgichni brutto (idishi bilan) og'irligi (6±1) kg		Varonkasimon og'zni Besh yilda bir marotabadan kam operator qulay bo'lgan bo'limgan xolda sinaladi va xolatga o'tkazadi, qayta zaryadlanadi yong'in o'chog'iga 2 m. masofada keladi va dastakni bosadi	
O't o'chirgichlarni qo'llash va saqlash harorati - 30 °S dan + 50 °S gacha		O't o'chirish vositasi O't o'chirgichni cho'kish, ochiq oqimini alanga quyosh ta'siridan va isitish asosiga yo'naltiriladi O't o'chirgichni cho'kish, ochiq oqimini alanga quyosh ta'siridan va isitish asosiga yo'naltiriladi qurilmalaridan saqlanadi	
DIQQAT! O't o'chirgich 10 kV. gacha bo'lgan kuchlanishdagi elektruskunalarni 2 m. dan kam bo'limgan xavfsiz masofada o'chirish uchun yaroqlidir.			
DIQQAT! O'chirish vaqtida ajralib chiqadigan gazlar, ayniqa yopiq xajmli joylarda xavfli Statistik elektrsizlantirishi mumkin			
			
Qattiq yonuvchi modda	Yonuvchi suyuqlik	Yonuvchi gazlar	1000 V gacha bo'lgan kuchlanishdagi elektruskunalar
O'zbekistonda ishlab chiqarilgan			

Yorliqning ikkinchi qismi

(qidaga asosan o't o'chirgich qobig'ining orqa tomoniga joylashtiriladi)

Ishlab chiqargan tashkilot nomi

O't o'chirgichni ishlab chiqaruvchi tashkilot manzili va telefon raqami

O't o'chirgichni ishlab chiqarilgan sanasi

Kukunli va uglekislotali o't o'chirgichlari yorliqlarining joylashuvi



ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktabr kundagi "Yong'in xavfsizligi qoidalari tasdiqlash to'g'risida"gi 649-sod Qarori.
2. GOST 16714 "Mexanizatsiyalashmagan yong'in o'chirish asboblari. Texnik shartlar".
3. GOST R 50982 "Yong'inlarda maxsus ishlarni bajarish uchun zarur vositalar. Umumiy texnikaviy talablar. Sinov usullari".
4. GOST 12.4.009 "Ob'ektlarni himoya qilish uchun yong'inga qarshi uskunalar. Asosiy turlari. O'rnatiladigan joylari va xizmat ko'rsatish".
5. GOST R 12.4.026 "Xabar berish ranglari va chiziqlari, xavfsizlik belgilari. Maqsad va qo'llash qoidalari. Umumiy texnikaviy talablar va tavsiflari. Sinov usullari".
6. O'zbekiston Respublikasi IIV YXBB YOTL. "Birlamchi yong'in o'chirish vositalarining kerakli miqdorini aniqlash bo'yicha tavsiyalar" 2006 yil.
7. GOST R 51049 "Yong'in texnikasi. Yong'in o'chirish bosimli yenglari. Umumiy texnikaviy talablar. Sinov usullari".
8. GOST 28352 "Yong'in texnikasi. Yong'in o'chirish ulash boshchalari. Umumiy texnikaviy talablar. Sinov usullari".
9. GOST R 53278 "Yong'in texnikasi. Yong'in o'chirish bosimli klapanlari. Umumiy texnikaviy talablar. Sinov usullari".
10. GOST R 53331 "Yong'in texnikasi. Yong'in o'chirish qo'l dastaklari. Umumiy texnikaviy talablar. Sinov usullari".
11. O'zDSt 1059. "Yong'in texnikasi. Olib yuriladigan o't o'chirgichlar. Umumiy texnikaviy talablar. Sinov nazorati".
12. O'zDSt 2589. "Yong'in texnikasi. Ko'chma harakatlanuvchi o't o'chirgichlar. Umumiy texnikaviy talablar. Sinov nazorati".
13. O'zDSt 3414 "Yong'in texnikasi. Olib yuriladigan va ko'chma harakatlanuvchi o't o'chirgichlarni ta'mirlash va qayta zaryadlash. Umumiy texnikaviy talablar va sinov usullari".

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-bob. Yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari.....	3
1-§. Yong'inni o'chirishning birlamchi vositalaridan foydalanish tartibi.....	3
2-§. Yong'inga qarshi qalqon va inventarlar. yong'inga qarshi qalqonlar bilan ta'minlash me'yorlari. foydalanish va davriy tekshirish tartibi.....	4
2.1. Yong'inga qarshi qalqonlar turlari va jamlanmasi.....	5
2.2. Mexanizatsiyalashmagan qo'lda ishlovchi yong'inga qarshi asboblar turlari, asosiy ko'rsatkichlari va o'chamlari.....	9
2.3. Binolar (inshootlar) va hududlarni yong'inga qarshi qalqonlari bilan jihozlash me'yorlari.....	12
2.4. Evakuatsiya qilish maqsadida yong'inga qarshi qalqonlarini qattiq tutqichlar bilan jihozlash me'yorlari.....	12
2.5. Yong'inga qarshi qalqon va vositalaridan foydalanish tartibi va davriy tekshiruvi.....	13
3-§. Yong'inga qarshi shkaf va inventarlar. Foydalanish va davriy tekshirish tartibi	15
4-§. O't o'chirgichlar. binolarni o't o'chirgichlar bilan jihozlash me'yorlari. foydalanish, tekshirish, texnik xizmat ko'rsatish va qayta zaryadlash tartibi.....	18
4.1. O't o'chirgichlarning turlari, tuzilishi va asosiy ko'rsatkichlari.....	22
4.1.1. Uglekislotali o't o'chirgichlar (UO'O').....	22
4.1.2. Kukunli o't o'chirgichlar (KO'O').....	23
4.1.3. Havo-ko'pikli o't o'chirgichlar (HKO'O').....	26
4.2. Binolarni o't o'chirgichlar bilan jihozlash me'yorlari.....	27
4.3. O't o'chirgichlardan foydalanish, davriy tekshirish, texnik xizmat ko'rsatish va qayta zaryadlash tartibi.....	30
A ilova.....	34
B ilova.....	35
V ilova.....	35
G ilova.....	36
D ilova.....	37
E ilova.....	38
Adabiyotlar ro'yxati.....	41

Djurayev Sobir Mirzayevich
Valiyev Dilmurod Turg'unovich
Xakimov Olimjon Kamiljanovich
Zokirov Jahongir Botir o'g'li

“YONG’INNI O’CHIRISHNING BIRLAMCHI VOSITALARI”
(Qo’llanma)

Texnik muharrir: S.D.Najimov

Bosishga 10.08.2023 yilda ruxsat etildi.
Qog’oz bichimi 210x297. O’lchami A5.
Garnitura Arial. Ofset bosma.
Birinchi nashr
Adadi 120 dona.

O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi
Fuqaro muhofazasi instituti
Tahririyot-noshirlik bo’limida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahar, Mirzo Ulug’bek tumani, Anaybuloq ko’chasi 3-uy.
Tel: (71) 266-50-36, 71 230-40-23.